

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



UMUMIY PSIXOLOGIYA
FANINING O‘QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 100000 – Ta‘lim
200000 - San‘at va gumanitar fanlar
500000 – Tabiiy fanlar, Matematika va statistika
- Ta‘lim sohasi:** 110000 - Ta‘lim
220 000 - Gumanitar fanlar
540000 – Matematika va statistika
- Ta‘lim yo‘nalishi:** 60110500 -Boshlang‘ich ta‘lim
60111100 -Tarix
60112200- Jismoniy madaniyat
60111800- Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha)
60540100 - Matematika

Fan/mavzu kodi PSY11210		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2		ECTS Kreditlar 10	
					1-S (6)	2-S (4)
Fan/mavzu turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek			Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Umumiy psixologiya		120	180	300	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni umumiy psixologik bilimlarni egallash, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatlari, shaxsni psixologik metodlar yordamida o'rganishga qaratilgan zamonaviy ilmiy bilimlar bilan qurollantirish.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisa, holat va jarayonlarning mohiyati, psixik rivojlanish va uning o'ziga xos xususiyatlari, shaxs kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun o'ziga xos psixofiziologik va individual psixologik xususiyatlari hamda hissiy irodaviy sifatlarini tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">I – MODUL. UMUMIY VA IJTIMOY PSIXOLOGIYA</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Psixologiya mustaqil fan sifatida</p> <p>Psixologiyaning rivojlanish bosqichlari. Psixologiya fanining predmeti, vazifalari va tamoyillari. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'рни. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish tarixi. Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning metodologiyasi va ilmiy tadqiqot metodlari. Psixika va ong. Psixika haqida tushuncha. Psixika miya faoliyatini boshqaruvchi tizim sifatida.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Bilish jarayonlari</p> <p>Psixik jarayonlar va ularni boshqarish usullari. Sezgi, idrok bilishning sodda darajasi. Xayol va ijodkorlik (kreativlik) o'rtasidagi bog'liqlik. Diqqat bilish jarayonining muhim asosi. Xotira haqida tushuncha. Anglash va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Tafakkur turi, shakli va operatsiyalari, Intellect va kreativlik haqida tushuncha. Fikrlash va nutqning bog'liqligi. Psixika, xulq-atvor va faoliyat Jismoniy va aqliy harakatlar.</p> <p style="text-align: center;">3-mavzu. Shaxs psixologiyasi</p> <p>Shaxs haqida tushuncha. Shaxs psixologik fenomen sifatida. Inson psixikasida umumiylik va individuallik. Shaxs nazariyalari. Shaxsning o'z-o'ziga baho berishi, Ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy rollar va pozitsiya. Shaxs va individuallik. Faoliyat va motivatsiya. . Faoliyatning tuzilishi va turlari. Motivatsiya va ularni boshqarish. Ijtimoiy xulq motivatsiyasi. Anglangan va anglanmagan motivlar. Ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy rollar va ijtimoiy pozitsiya. Ijtimoiy ustanovkalar.</p>					

4-mavzu. Shaxsning individual tipologik xususiyatlari

Shaxsning individual xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyatlar, iqtidor, aqliy salohiyat. Temperament haqidagi nazariyalar (Gumoral, Konstitutsional nazariya, Psixofiziologik nazariya, Faktorial nazariyalar). Temperament turlari va ularning psixologik tavsifi. Xarakter turlari va xarakter aktsentuatsiyasi. Shaxsning psixologik tuzilmasi. Tugʻma va orttirilgan qobiliyatlar. Iqtidor va aqliy salohiyatning oʻzaro bogʻliqligi. Qobiliyatlar. Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi. Emotsiya haqida tushuncha. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari, insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar, Emotsiya nazariyalari (Djeyms- Lang, Kennon-Bard, S. Shaxter, D. Zinger). Yuksak hislar, hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Hissiy ton, affekt, stress, shaxsning irodasi haqida tushuncha.

5-mavzu. Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi.

Emotsiya haqida tushuncha. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari, insoniy emotsiyalar va hayvonlardagi emotsiyalar, Emotsiya nazariyalari (Djeyms- Lang, Kennon- Bard, S. Shaxter, D. Zinger). Yuksak hislar, hissiy holatlarning ifodalanishi, hislarni kechirish shakllari. Hissiy ton, affekt, stress, shaxsning irodasi haqida tushuncha.

6-mavzu. Shaxslararo muloqotning shaxs taraqqiyotidagi oʻrni

Shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimida. Muloqotning shakllari va bosqichlari. Muloqotning kommunikativ tomoni- maʼlumotlar almashinuv jarayonidir. Shaxs muloqotning subʼekti va obʼekti sifatida. Muloqotning turlari va vazifalari. Muloqotning verbal va noverbal, paralingvistik taʼsiri, muloqot shaxsning idrok etish vositasi sifatida. Tinglash turlari va texnikasi. Muloqotning interaktiv, perseptiv tomoni.

7-mavzu. Guruh va jamoa psixologiyasi

Katta va kichik guruhlar. Guruhlardagi oʻzaro taʼsir. Jamoa psixologiyasi. Insonlarning oʻzaro taʼsir psixologiyasi. Ommadagi oʻzaro taʼsir. Shaxs va guruh: yetakchilik va boshqaruv. Xarizmatik nazariya. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. Liderlik uslublari (Avtoritar, demokratik, liberal). Rahbarlik sifatleri (lider, superlider).

8-mavzu. Ijtimoiy jarayonlar: oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Oilada sogʻlom muhit psixologiyasi. Yoshlik faslining oʻziga xos odobi va psixologiyasi. Oilada bolalar tarbiyasi. Oilaviy munosabatlar odobi va psixologiyasi.

9-mavzu. Nizolar psixologiyasi

Xulq-atvordagi muammolar. Nizo tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili. Nizolarning kelib chiqish sabab va oqibatlari. Nizolarning rivojlanishiga xos boʻlgan psixologik qonuniyatlar. Nizolarning shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga taʼsiri. Shaxsning oʻziga aloqador boʻlgan ichki

nizolar. Shaxs va guruh o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar. Guruhlararo ziddiyat. Guruh va jamoalardagi nizolar. Shaxslararo nizolar. Ochiq va yashirin nizolar. Nizolardan ogoh etish va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik

10-mavzu. Maxsus sharoitlarda shaxs xulq-atvoriing psixologik xususiyatlari

Faoliyatning ekstremal sharoitlariga psixologik tavsif. Ekstremal sharoitlarda shaxs xulq-atvori. Ma'naviy inqiroz sharoitida shaxs o'zini o'zi rivojlantirishi. Ruhiy tanglik va o'ziga o'zi yetakchilik qilishi. Kognitiv xatti harakatlar strategiyasi va ularning maxsus sharoitlardagi faoliyat samaradorligiga ta'siri. Ekstremal vaziyatlarda shaxsning tavakkalchilikka moyilligi va yangi kechinma-tuyg'ularni izlashi xulq-atvorining zaruriy determinantlari sifatida. Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik yordam ko'rsatish.

II – MODUL. YOSH VA PYEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

11-mavzu. Yosh va pedagogik psixologiya fanining tadqiqot sohasi va muammolari.

Yosh va pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanining mustaqil fan sifatida vujudga kelishi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining asosiy sohalari va boshqa fanlar bilan aloqasi. Yosh va pedagogik psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Pedagogik psixologiyaning predmeti va metodlari. Asosiy pedagogik kontseptsiyalar. Psixik rivojlanish va ta'lim o'rtasidagi o'zaro munosabat. Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi. Psixik rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari.

12-mavzu. Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar

Prenatal va perinatal davrlarning o'ziga xos xususiyatlari. Tug'ilish davri inqirozi. Chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanish va go'daklik davrining o'ziga xos psixologik xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yoshgacha bolalar inqirozi.

13-mavzu. Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyot

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Yosh davrida motivatsion sohadagi o'zgarishlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida. 7 yoshli bolalar inqirozining sabablari va maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi

14-mavzu. Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori.

Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari

**15-mavzu. O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
(11-15 yosh)**

O'smirning umumiy xususiyatlari. O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. O'smirlik davri inqirozining psixologik va psixofiziologik sabablari. O'smirlik davrida shaxsning intellektual, hissiy va motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari. O'smirlik davrida o'ziga o'zi baho berish tizimining rivojlanishi.

**16-mavzu. Ilk o'spirinlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari
(15-18 yosh)**

Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida sevgi tuyg'ularining shakllanishi. Ilk o'spirinlarning turmush haqidagi tasavvurlar. Ilk o'spirinlik davrida do'stlikning rivojlanishi. Ilk o'spirinlik davrida o'z-o'zini anglashni rivojlantirish. Ilk o'spirinlik davrida kasb tanlash muammosi. Ilk o'spirinlik davrida ta'lim va kasbiy faoliyat yetakchi faoliyat sifatida.

**17-mavzu. Yoshlik davridagi aqliy rivojlanish xususiyatlari
(19-28 yosh)**

Yoshlik va uning xususiyatlari. Yoshlik davrida o'z-o'zini anglashni rivojlantirish. Yoshlik davridagi kasbiy anglanganlikning psixologik xususiyatlari. Yoshlik davrida yetakchi faoliyat turlari. Yoshlik davrida shaxsning shaxsiy-kasbiy o'sishi. Shaxsning akmeologik pozitsiyasi.

18-mavzu. Yetuklikning psixologik xususiyatlari

Yetuklikning birinchi bosqichida shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklikning ikkinchi bosqichida shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Yetuklik davrida shaxsiy kasbiy rivojlanish. Shaxsning kasbiy yetukligi.

19-mavzu. Keksayish davrining psixologik xususiyatlari

Gerontologiya - keksalik psixologiyasi. Psixologlarning keksayish davri haqidagi falsafiy fikrlari. Keksalik davrining o'ziga xos xususiyatlari va biologik keksayish. Keksayish davridagi shaxs psixologiyasi. Uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik xususiyatlari

20-mavzu. Ta'lim psixologiyasi

Ta'limning psixologik xususiyatlari. Ta'limda psixologik xizmat ko'rsatish. Ta'lim jarayoniga ta'sir qiluvchi psixologik omillar. Ta'lim turlari, sharoit va mexanizmlari. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat. Ta'lim oluvchilarga psixologik-pedagogik ta'sir etish. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uning komponentlari. Noan'anaviy ta'lim turlari va ularning xususiyatlari. Faol o'qitish metodlarini qo'llash shartlari. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari. Innovatsion ta'lim va loyihalash texnologiyalari. Pedagogik baholash psixologiyasi. O'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatida rag'batlantirishning

psixologik asoslari. Pedagogik faoliyatda rag'batlantirish va jazolash usullari. Baholashda ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash.

21-mavzu. Tarbiya psixologiyasi

Tarbiya maqsadi va vazifalari. Tarbiya tamoyillari va metodlari. Tarbiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlari. Muloqot va tarbiya. Jamoa va shaxs rivojlanishi. Oila va tarbiya. Bolalarni o'yinlar, uy yumushlari va o'quv faoliyati asosida jismoniy, gigienik va axloqiy tarbiyalash. Axloqiy me'yorlarning o'zlashtirishi. Xulq-atvorini hissiy-motivatsion tartibga solishi. Shaxsiy sifatlarining shakllanishi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyalarining rivojlanishi. Mustaqillik va mehnatsevarlik sifatlarining paydo bo'lishi. Muloqot me'yor va qoidalarini o'zlashtirishi. Irodaviy va muhim ishchan sifatlarining shakllanishi. Axloqning shakllanishi va rivojlanishi. Dunyoqarashlarning yuzaga kelishi.

22-mavzu. Pedagog psixologiyasi

Pedagogik faoliyatning metodologik tuzilmasi. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni. Jamiyatda pedagog kasbining tutgan o'rni. Pedagogning kasbiy moslashish muammosi. Pedagog shaxsiga qo'yilgan psixologik talablar. Pedagogning umumiy va kasbiy qobiliyatlari. Pedagog kompetentligi professionallashuv omili sifatida. Pedagog kasbiy faoliyatini aniqlashda psixogramma va professiogrammaning ahamiyati. Innovatsion ta'lim sharoitida pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanishining psixologik omillari. Pedagogning samarali innovatsion faoliyatini ta'minlashda shaxsiy-kasbiy rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash. Pedagogning professional-pedagogik kompetentligi. Professionalizm va kasbiy kompetentlik. Pedagogning kasbiy kompetentligi va professionalizmiga psixologik yondashuv. Pedagog professionalizmining shakllanishi integrativ psixologik hodisa sifatida.

23-mavzu. Pedagogik qobiliyatlar

Pedagogik jamoa faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari. O'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish. O'quvchilar guruhida o'zaro munosabatlarni boshqarish. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar. Pedagogik qobiliyatlar: didaktik qobiliyatlar, akademik qobiliyatlar, persektiv qobiliyatlar, nutq qobiliyatlar, tashkilotchilik qobiliyatlar, avtoritar qobiliyatlar, kommunikativ qobiliyatlar, pedagogik xayol, pedagogik diqqatni taqsimlay olish qobiliyati, pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari.

Pedagogik faoliyatning psixologik asoslari. Jamiyatda o'qituvchining tutgan o'rni va uning ahamiyati, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, o'qituvchining kasbiga xos sifatleri va xislatlari. o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.

3.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini uyushtirish bo'yicha tavsiya qilinadigan taxminiy mavzular:

1. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish tarixi.
2. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi va faoliyati.

	<ol style="list-style-type: none"> 3. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari. 4. Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. 5. Guruh va jamoalardagi o‘zaro ta’sir. 6. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. 7. Nizolar va ularning kelib chiqish sabablari. 8. Ekstremal sharoitlarda shaxs xulq-atvori. 9. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar. 10. Shaxs ijtimoiylashuv bosqichlari. 11. Yosh davrlar psixologiyasi fanining predmeti 12. Yosh davrlarini tabaqalash muammolari. 13. Pedagogik psixologiyaning predmeti. 14. Ta’lim psixologiyasi 15. Tarbiya psixologiyasi. 16. Pedagogning kasbiy kompetentligi va professionalizmi. 17. Pedagogik baholash psixologiyasi. 18. Pedagogik boshqaruv psixologiyasi. 19. Pedagogik harakat tashkiliy va boshqaruv faoliyat sifatida. 20. Guruhlarda rahbarlik va liderlik. 21. Pedagogik muloqot va boshqaruv uslublari. 22. Rahbar va xodimlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. 23. Rahbarning muhim shaxsiy-kasbiy sifatлари. 24. Pedagogik jamoani boshqarish asoslari. 25. O‘quv faoliyatini tashkil etish va boshqarish. <p>Seminar mashg‘ulotlari faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.</p>
<p>4.</p>	<p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar</p> <p>Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini yozma bayon qilish; - tezis va ma’ruzalar tayyorlash; - kurs ishi yozish; - konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhiy o‘quv loyihasi; - keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish; - manbaalar bilan ishlash; - multimediali taqdimotlar yaratish; <p>Shuningdek, ta’lim yo‘nalishi va ixtisoslikning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular buyicha talabalar tomonidan seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik, darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Umumiy psixologiyaning mustaqil fan sifatida vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati.
2. Umumiy psixologiyaning zamonaviy metodologiyasi.
3. Umumiy psixologiyaning kognitiv metodologiyasi.
4. Umumiy psixologiya fanining tadqiqot metodlari.
5. Psixologiyaning fan sifatidagi inqirozi.
6. Umumiy psixologiyaning asosiy tamoyillari.
7. Psixologik tadqiqot metodlarining klassifikatsiyasi.
8. Umumiy psixologiya fanining klassik tadqiqotlarida metodik uslublar.
9. Umumiy psixologiya uchun hujjatlarni o'rganish metodining mohiyati.
10. Psixologik hodisalarni kontent-analiz usuli orqali tekshirish.
11. So'rov, anketa va testlar usullari.
12. Hozirgi zamon psixologiyasida testning dolzarb muammolari.
13. Eksperimental muomala, eksperimentator shaxsi va faoliyati.
14. Eksperimentda sinaluvchi shaxsi va faoliyati.
15. Psixologik eksperiment vaziyati va etikasi.
16. Psixologik kontseptsiyalar
17. Shaxsning insonparvarlik nazariyasi.
18. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi.
19. Murakkab bilish jarayonlari.
20. Ko'rish idroki asimmetriyasi.
21. Mutloq va differentsial sezgirlikni o'rganish.
22. Emotsiyalarning idrokka tanlovchan ta'siri.
23. Bilish jarayonlari va emotsiyalar.
24. Sezgi va idrok jarayonlari rivojlanishi.
25. Geshtalt psixologiyada pertseptiv tushunish qonunlari.
26. Idrok illyuziyalari.
27. Diqqatning barqarorlashishi.
28. O'quvchilar diqqatining ayrim xususiyatlari.
29. Diqqat kontsentratsiyasi va mantiqiy xotira o'rtasidagi bog'liqlik.
30. Diqqatning taqsimlanishi va obrazli xotira.
31. Boshlang'ich sinf o'quvchilari diqqatning ayrim xususiyatlari.
32. Diqqat va xotira psixokorreksiya.
33. Shaxs rivojlanishining turli davrlarida motivatsion jarayonning ahamiyati.
34. Emotsiyalarning shaxs shakllanishidagi o'rni.
35. Emotsiyalar va insonning xronologik yoshi.
36. Emotsionallikning inson hayot faoliyatiga ta'siri.
37. Irodaviy boshqaruv va inson shaxsining shakllanishi.
38. Inson irodasining tabiati.
39. Irodaviy boshqaruv va irodaviy zo'riqish.
40. Murakkab sharoitlarda irodaning namoyon bo'lishi.
41. Ongli nazorat ixtiyoriy boshqaruv shakli sifatida.

42. Yosh xususiyatlarining inson irodaviy boshqaruviga ta'siri.
43. Xulq-atvor va faoliyatni ixtiyoriy boshqarishning psixofiziologik mexanizmlari.
44. Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi va faoliyati.
45. Bilish jarayonlari va ularni boshqarish.
46. Intellekt va uni baholash.
47. Kreativlik, ijodiy qobiliyat va individual xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik.
48. Shaxsni o'rganishning ijtimoiy psixologiya uchun o'ziga xosligi.
49. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari.
50. Shaxs tiplari va ularning ijtimoiy psixologik xarakteristikasi.
51. Umumiy psixologiyada kasb tanlash muammosi.
52. Psixik jarayonlar va professional faoliyat.
53. Yosh davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi.
54. Ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi va o'zgarishi.
55. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi.
56. Tarbiyasi qiyin bolalar psixologiyasi.
57. Maktabga psixologik xizmat ko'rsatish.
58. Yoshlardagi attraktsiya va emotsional munosabatlar.
59. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari.
60. Samarali ta'sir psixologiyasi.
61. Muloqot va shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning mavzuidir.
62. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
63. Muloqot shakllari va bosqichlari.
64. Muloqotning psixologik tizimi va vazifalari.
65. Muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir.
66. Muloqotning verbal, noverbal, paralingvistik vositalari.
67. Muloqotning interaktiv tomoni va shaxslararo munosabatlardagi uning o'rni.
68. Muloqotning pertseptiv tomoni jihatlari.
69. Stereotiplardan foydalanish shartlari.
70. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi.
71. Etnik guruhlar psixologiyasi.
72. Etnopsixologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlar.
73. Kichik guruhlar psixologiyasi.
74. Kichik guruhlarining klassifikatsiyasi.
75. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.
76. Nikoh va oila sohasidagi tadbiqiy tadqiqotlar.
77. Sanoat ijtimoiy psixologiyasi.
78. Pedagogik qobiliyatlar.
79. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida pedagogik professionalizm va pedagogik ta'lim.
80. Pedagogik professionalizmni o'rganishga akmeologik yondashuv.
81. Pedagogik faoliyatda kasbiy motivatsiyani rivojlantirish.

	<p>82. Pedagogni kasbiy rivojlanishining asosiy bosqichlari.</p> <p>83. Pedagogning kasbiy yetukligi va o‘zini shaxsiy-kasbiy imkoniyatlarini namoyon etishi.</p> <p>84. Pedagogning kasbiy o‘zgarishi (deformatsiyasi).</p> <p>85. Kasbiy mag‘lubiyat mohiyati va uni oldini olish yo‘llari.</p> <p>86. Psixologiyada boshqarish muammosi.</p> <p>87. Guruhlarda rahbarlik va liderlik.</p> <p>88. Liderlik usullari haqida tushuncha.</p> <p>89. Rahbarlik va uning sifatlari.</p>
<p>5.</p>	<p>V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</p> <p>Talaba bilish kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O‘zbekiston Respublikasining psixologiyani rivojlantirish sohasidagi siyosati; • fanning predmeti, vazifalari va tamoyillari; • psixologiyaning rivojlanish bosqichlari va fanlar tizimida tutgan o‘rni; • psixologiyaning tarmoqlari va ilmiy tadqiqot metodlari; • psixik jarayonlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; • bilish jarayonlarini boshqarish usullari; • shaxsning psixologik holatlari va individual xususiyatlari: • yosh davrlardagi psixologik va fiziologik o‘zgarishlar; • bolalarning psixik rivojlanishi; • ijtimoiy tasirlarning shaxs tomonidan anglanishi; • bolalarni o‘quv jarayoniga moslashishi, psixologik, fiziologik va intellektual rivojlanishini ta’minlashda yosh davrlarga xos psixologik xususiyatlar; • bolalarning o‘quv-kasbiy faoliyatida o‘z-o‘zini anglash jarayonini bilishi; • bolalarning kichik maktab yoshidan o‘smirlik davriga o‘tish jarayonidagi muammolarni aniqlash; • bolalardagi inqirozlarning yosh va jins xususiyatlariga xos ravishda yuzaga kelish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash; • bolalar guruhlaridagi shaxslararo nizolarni oldini olish va yuz beradigan nizolarni bartaraf etish; • jamoada ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; • ta’lim jarayonida bolalarning mustaqil faoliyatni tashkil etish va nazorat qilishda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib psixoprofilaktik ishlarni samarali usullarini qo‘llash; • zarur holatlarda individual va guruhiy shaklda ishlash; • olingan psixodiagnostik ma’lumotlarni qayta ishlash va ular asosida tavsiyalar ishlab chiqish; • bolalar ijtimoiylashuvidagi inqirozlarni o‘z vaqtida bartaraf etishda psixoprofilaktik ishlarni samarali amalga oshirish;

	<ul style="list-style-type: none"> • tarbiyasi og‘ir bolalarni aniqlash va ular bilan keng psixokorreksion ishlarni olib borish; <p>maktab, mahalla va oila hamkorligida bolalarning eng muhim muammolari hal etilishiga har tomonlama ko‘maklashish kabi <i>kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim.</i></p>
6.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg‘ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; <p>jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
7.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
8.	<p style="text-align: center;">VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. -T., TDPU, 2002 yil 2. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychieva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. - T.: TDPU, 2004. 3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Saliyeva D.A. Ontogenez psixologiya. - T.: “NIF MSH” 2023 4. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. O‘z.FMJ, 2008 yil 5. Haydarov F.I., Halilova N. Umumiy psixologiya. - T.: 2009 yil 6. G‘oziev E.G‘. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T.: O‘qituvchi. 1994. 7. Jo‘raeva S. N, Sharofutdinova X. G, Mamarajabova B. A. Umumiy psixologiya o‘quv qo‘llanma.Toshkent. 2022. 8. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010. 359 b.
9.	<p style="text-align: center;">IX. Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi PF - 6108 - son Farmoni. 11. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b. 12. Дружинина В. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003. 13. Климов Е.А. Основы психологии. Учебник для вузов. Е.А.Климов. – М.: ЮНИТИ, 1997. – 295 с.

	<p>14. Константинов В.В. История психологии. / В.В.Константинов. – Пенза: ПГПУ им. В.Г.Белинского, 2007. – 144 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>15. http://www.pedagog.uz 16. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali: http://www.gov.uz 17. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz 18. www.ma’naviyat.uz 19. www.psicho.all.ru www.psychology.net.ru</p>
10.	<p>Ushbu dastur Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “___” _____ dagi ___-sonli qarori bilan tasdiqlangan.</p>
11.	<p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:</p> <p>Norbosheva M - TISU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent. Almardonova R.N. - TISU, “ Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi,(PhD) Xolmurodova Sh. Aminova D. Jo‘rayev A. - TISU, “ Pedagogika va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi.</p>
12.	<p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>Avliyaqulov T.X. - TISU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. X.G. Sharafutdinova - Termiz davlat universiteti “ Psixologiya” kafedrası mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.</p>